

SOLIQ SOHASIDAGI YaNGILIKLAR



SOLIQ SOHASIDAGI YaNGILIKLAR

Yuridik shaxslarni mol-mulkiga solinadigan solig' stavkasi 2 % dan 1.5% ga normativ muddatda tugallanmagan qurilish ob'yektlariga nisbatan 4 % dan 3 % ga pasaytiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash va hisobotini taqdim etishda quydagi ozgartirish va qushimchalar kiritiladi:

Mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarishda bino va inshootlar buyicha solig' bazasini (liniyali ob'ektlar va tugallanmagan qurilish obektlari bundan mustasno) quydagi miqdorlarda 1m kvadrat uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatdan past bulishi mumkin emas:

- Toshkent shahrida - 2.5mln so'm
- Nukus shahrida va viloyat markazlarida -1.5 mln so'm
- boshqa shaharlarda va qishloq joylarda 1 mln so'm
- agar obektning 1 m kvadrani qiymati belgilangan minimal qiymatdan past bulsa,soliq tulovchi kuchmas mulk ob'ektlari qiymatini mustaqil baholashni amalga oshirish uchun baholovchilarni jalg etishga haqli.

Bunda mustaqil baholash natijalari soliq bazasi sifatida etirof etiladi .

soliq tulovchilarga soliq hisobotlarini taqdim etish bo'yicha quydagi huquqlar berildi:

2022-yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani 2022-yil 1-fevralga qadar kuchmas mulk ob'ektlariga 1 v kvadrat qiymatini hisobga olmagan holda taqdim etish:

2022-yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi tug'risidagi aniqlashtirgan ma'lumotnomani 2022-yil 1-aprelga qadar,peniya hisoblash ko'rinishidagi chorasini qo'lamasdan taqdim etish:
172

Yangi neft va gaz quduqlarini, ularni foydalanishga topshirilgan oyidan boshlab, dastlabki 2-yil davomida

yuridik shaxslarni mol-mulkiga solinadigan ozod etilishi nazarda tutilmoxda .ushbu soliq imtiyozini amal qilish muddati 3-yil davomida mazkur quduqlarga nisbatan belgilangan soliq stavkasining 50%-ga kamaytirgan soliq stavkasi qo'llaniladi.

A.A.Atayev- So'x tuman davlat soliq inspeksiyasi

"Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash" sho'basi

davlat soliq bosh inspektori

2022-01-21 17:35:38